

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.15.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

G‘ULOMOV SHUKURJON ILHOMJON O‘G‘LI

**KARTOSHKKA EKISHDA BIR YO‘LA O‘G‘IT SOLADIGAN ISH
ORGANINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

G‘ulomov Shukurjon Ilhomjon o‘g‘li

Kartoshka ekishda bir yo‘la o‘g‘it soladigan ish organini takomillashtirish
va parametrlarini asoslash..... 3

Гуломов Шукуржон Илхомжон ўғли

Совершенствование и обоснование параметров рабочего органа для
внесения удобрений при посадке картофеля..... 19

Gulomov Shukurjon Ilhomjon ugli

Improvement and justification of the parameters of the working body for
applying fertilizers when planting potatoes..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.15.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

G‘ULOMOV SHUKURJON ILHOMJON O‘G‘LI

KARTOSHKKA EKISHDA BIR YO‘LA O‘G‘IT SOLADIGAN ISH
ORGANINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH

05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash

TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4934 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Komilov Ne‘matilla Muxammadjonovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Norchayev Davron Rustamovich
Texnika fanlari doktori, professor

Raxmonov Xusan Tojiyevich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.T.15.06 raqamli ilmiy kengashning 202__-yil «__» _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160103 Namangan, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160103 Namangan, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 202__-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(202__-yil «__» _____dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.G‘.Bayboboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

V.M.Turdaliyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

A.X.Umurzaqov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ildizmevali qishloq xo‘jaligi ekinlarini oziqlantirishda mineral o‘g‘itlarning samaradorligini oshirish va tejash maqsadida ularning ildiz tizimi rivojlanadigan tuproq qatlamiga belgilangan me‘yorlarda solishning zamonaviy texnologiya va texnik vositalarini joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyoda qariyb 900 mln gektar maydonda turli xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shundan 18 mln gektar maydonda kartoshka ekishning hisobga olsak”¹, kartoshka yetishtirishda ish unumi va sifat ko‘rsatgichlari yuqori hamda resurs tejamkor mineral o‘g‘itlarni belgilangan talablar asosida soladigan mashinalarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, mineral o‘g‘itlarni kartoshka tuganaklari ostiga, ya‘ni ildiz tizimi rivojlanadigan tuproq qatlamiga soladigan, samaradorligi yuqori bo‘lgan mashinalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda ildizmevali qishloq xo‘jaligi ekinlarining ildiz tizimlari rivojlanadigan tuproq qatlamiga mineral o‘g‘itlarni belgilangan chuqurlikda solishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining ishlab chiqishning yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda kartoshka ekishda bir yo‘la kartoshka tuganaklari ostiga o‘g‘it soladigan ish organlarining konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va texnologik jarayonlarini ilmiy asoslash, urug‘lik kartoshka tuganaklari ostiga ekish jarayonida o‘g‘it solish va tuproq bilan ko‘mib pushta hosil qilish agrotexnik tadbirlarda resurstejamkorlikni ta‘minlashga doir ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida mehnat sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va ish unumi yuqori qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish va qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab- quvvatlash uchun xususiy investisiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investisiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash...”² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, mineral o‘g‘itlarni kartoshka ekish vaqtida ildiz tizimlari rivojlanadigan qatlamga soladigan ish organini ishlab chiqish va uning talablar darajasidagi ish sifatini ta‘minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligida mashinasozlik sohasi ilmiy-texnikaviy

¹ <https://www.stat.uz> – Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni

bazasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3117-son qarori, 2019-yil 31-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora- tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4410-son, 2020-yil 6-maydagi "Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4704-son, 2025-yil 8-sentabrdagi "Respublikada kartoshka yetishtirishni ko'paytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-269-son qarorlari, 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda kartoshka tugunaklarini ekish bilan bir yo'la o'g'itlash mashinalarini modernizatsiya qilish, ular bajaradigan texnologik ish jarayonlarini mukammal holatga keltirish, ishchi qismlarining konstruksiyalari va parametrlarini asoslash, tanlash hamda takomillashtirish yo'nalishida ko'plab tadqiqotchi olimlar, jumladan, D.D.Steele, T.A.Bon, J.A.Moos, J.A.Devis, T.Pavlovski, J.Kromulski, N.E. Samsonova, O.G. Zimina, A.N. Skuryatin, Y.M. Naumov, A.S. Terentev, V.A Baturin, R.N Bulatov, V.M Novoxatskiy, V.M Kulagin va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlarini o'g'itlash mashinalari va ishchi qismlarini takomillashtirish bo'yicha A.Xadjiev, T. Xidirov, N.M. Komilov, Sh.Xaydarova kartoshkani ekish, o'g'it solish jarayoni va uni amalga oshiradigan mashinalarni tadqiq etish bilan T.A.Karabaev, R.I.Baymetov, A.A.Do'squlov, X.X.Mahmudov, F.G'anievlar shug'ullanishgan.

Mazkur tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan va takomillashtirilgan mashinalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo, bu tadqiqotlarda kartoshka tuganaklarni ekish bilan birga ularni ostiga belgilangan chuqurlikda mineral o'g'it soladigan mashina ishlab chiqish va parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universiteti (sobiq Namangan muhandislik-qurilish instituti) ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq QXA-3-019-2015 "Energiya va resurs tejamkor, universal kartoshka ekish mashinasini yaratish va ishlab chiqish" (2015-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kartoshka tugunaklarini ekishda o'g'itni bir yo'la ularning ostiga keng tasmasimon usulda soladigan ish organinni takomillashtirish

va parametrlarini asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

o'g'it solish texnologiyalari va texnikalari hamda kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'itlash mashinalari va ishchi qismlari konstruksiyalarini tahlil etish;

tuproqning kartoshka ekish davridagi va o'g'itning fizik-mexanik, texnologik xossalari tahlil qilish;

kartoshka ekish bilan birga o'g'itlarni kartoshka tunganagi ostiga keng tasmali o'g'it soluvchi ishchi qismni konstruksiyasini takomillashtirish;

kartoshka ekishda bir yo'la keng tasmasimon o'g'it solgich-ko'mgichning parametrlarini asoslash uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

ishlab chiqilgan o'g'it solgich-ko'mgich bilan jihozlangan takomillashtirilgan kartoshka ekish mashinasi ish sifat ko'rsatkichlarining agrotexnik talablarga mosligini baholash va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obekti sifatida o'g'it va tuproqning fizik-mexanik xossalari, o'g'it solgich-ko'mgich ish organining texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti keng tasmali o'g'it solgich-ko'mgich parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar hamda ish sifati ko'rsatkichlarini uning parametrlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqotlarda matematik tahlil, nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarda matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud meyoriy hujjatlar (O'zDSt 3236:2017, GOST 28714-2007, O'zDSt 3193.2017, RD O'z 63.03-98) da belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kartoshka tunganaklarini ekish bilan bir yo'la mineral o'g'itlarni tunganak ostiga belgilangan chuqurlikda soladigan mashinaning o'g'itni keng tasmasimon etib taqsimlaydigan plankali g'altaning diametri va undagi plankalari soni ish jarayonida kamida bitta qatordagi plankalar tuproq bilan to'liq o'zaro ta'sirda bo'lish shartlaridan kelib chiqib aniqlangan;

o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, qamrash kengligi, uzunligi va ular orasidagi tirqish solingan mineral o'g'itlarni belgilangan qalinlikda tuproq bilan ko'mish va uning oldida tuproq uyulib qolmaslik shartidan aniqlangan;

taqsimlaydigan plankali g'altakning plankalariga mineral o'g'it donalarini urilgandan keyingi harakat trayektoriyasini ifodalovchi tenglama o'g'it donalarini dastlabki tezligi va plankaning o'rnatish burchagini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

mineral o'g'itlarni kartoshka tunganaklari ostiga keng tasmasimon qilib taqsimlaydigan plankali g'altakning diametri, plankalarni o'rnatish burchagi, soni va mashina ish tezligining makbul qiymatlari unga qo'yilgan agrotexnik talablarni sifatli bajarilishini ta'minlash shartidan kelib chiqqan holda, tajribalarni matematik rejalashtirish usulida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

belgilangan talablar darajasida kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan, asoslangan parametrlarga ega bo'lgan o'g'it solgich-ko'mgich bilan jihozlangan kartoshka ekish mashinasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan o'g'it solgich-ko'mgich kartoshka tuganagini ekish jarayonida tuganaklari ostiga o'g'itlangan qatlam hosil qilib kartoshka ildiz tizimi rivojlanadigan muayan qatlamini o'g'itlashda qo'llanilganda mehnat sarfi 35,7 foizga, ekspluatasion xarajatlar 1,4 marta kamayishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Izlanishlarning zamonaviy usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan ish organining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ish organini dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan ish organining talab darajasidagi ish sifatini ta'minlovchi parametrlari asoslanganligi hamda olingan analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ish organining kartoshka ekishda bir yo'la tuganag ostiga o'g'it solinganda o'g'it samaradorligi ortishi, mehnat o'g'it va xarajatlar sarfini kamayishi va ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan ish organining parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

kartoshka ekishda bir yo'la tuganak ostiga mineral o'g'itlarni soladigan mashinaning sanoat nusxasini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va konstruktorlik hujjatlari, texnik shartlar, chizmalar) "Marg'ilon mexanika zavodi" MchJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/04-04-273-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy asoslangan parametrlarga ega energiya-resurstejamkor bir o'tishda kartoshka ekadigan va mineral o'g'it soladigan mashinaning sanoat nusxasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

bir o'tishda kartoshka ekadigan va mineral o'g'it soladigan mashina Namangan viloyati Pop hamda Kosonsoy tumanlarining fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/04-04-273-son ma'lumotnomasi). Natijada, kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'it solish mashinasi qo'llanilganda ish unumi 1,3 marta oshdi, mehnat sarfi 35,7 foizga va 1 gektar erga sarflanadigan ekspluatasion xarajatlar 1,4 martaga kamaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy

jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 113 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Kartoshka ekish bilan birga o'g'it solishning axamyati va hozirgi holati" deb nomlangan 1-bobida kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it solish texnologiyasi, mashinalar konstruksiyasi va ularning afzallik va kamchiliklari, ularni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan.


Dissertatsiyaning **"Kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'it solib ko'muvchi ish organining parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari"** deb nomlangan ikkinchi bobida kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan mashinasi konstruksiyasini ishlab chiqish va uning plankali g'altak-o'g'it solgich ko'mgich parametrlari, ish rejimlarini nazariy jihatdan asoslashga doir tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan mashinalari, o'g'it solish ish organlari tizimlari konstruksiyasi hamda agrotexnologik ish jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan mashinaning yangi konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan. (1-rasm).

Kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'it soladigan mashina rama 1 ga o'rnatilgan ishchi qisimlardan iborat bo'lib, traktorga uch nuqtali osma 14 orqali biriktiriladi, o'g'it maxsus bunker 2 ga joylashtiriladi shnek xarakatni tayanch g'ildirak 10 dan 7 reduktor va zanjirli uzatma 13 orqali oladi, o'g'it o'tkazgich 5 orqali o'g'it plankali g'altak o'g'it taqsimlagich 12 ga etib boradi va plankali g'altak o'g'itlarni tuproq bilan aralashtiradi маълум kenglikda taqsimlaydi. Soshnik 8 da joydashgan o'g'it ko'mgich 3-5 sm qalinlikda o'g'itlarni tuproq bilan ko'mib ketadi va bu qatlam ustiga urug' bunker 3 da joylashgan kartoshka tuganaklari urug'i urug' o'tkazgich 6 orqali tushadi, so'ngra ko'muvchi disk 11 kartoshka urug'ini tuproq bilan ko'mib jo'yak hosil qilib ketadi.

Taklif etilayotgan kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it solgich-ko'mgich asosiy ishchi qisimlari egat ochgich I, plankali g'altak II va o'g'it ko'mgichlar III dan iborat (2-rasm), bo'lib ustun 1 yumshatkich 2, o'ng 3 va chap 4 qanotlar xamda uning orqa tomoniga o'g'it o'tkazgich 5 o'rnatilgan, qanotlarga esa o'z navbatida plankali g'altak hamda shtanga 6 yordamida o'ng 7 va chap 8 o'g'it ko'mgich

bilan jihozlangan.



1-rama; 2- o'g'it bunker; 3-kartoshka urug' bunker; 4- disksimon miqdorlash apparati; 5-o'g'it o'tkazgich; 6-urug' o'tkazgich; 7-rediktor; 8- o'g'it solish ish organi; 9-urug' o'tkazgichni mahkamlash ustuni; 10- tayanch-harakat uzatgich g'ildirak; 11-ko'muvchi disk; 12-plankali g'altak o'g'it taqsimlagich; 13-zanjirli uzatma; 14-osgich.

1-rasm. Kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan mashinaning konstruktiv-texnologik sxemasi

O'g'it solgich-ko'mgich ish jarayonida egat ochgich qismi egat ochadi, ochilgan egatga plankali g'altak ma'lum chuqurlikda ishlov berib, o'g'ito'tkazgichdan tushayotgan o'g'itni ma'lum kenglikda sochib tuproq bilan aralashtiradi, o'g'it ko'mgich yon tomondagi tuproq uyumini egat ichiga surib malum bir qalinlikda (3-5 sm) o'g'itlarni ko'mish jarayonida urug'o'tkazgichdan tushayotgan kartoshka tuganaklari tushish uchun ariqcha xosil qiladi.

Quyidagilar o'g'it solgich-ko'mgichning agrotexnik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi parametrlari hisoblanadi:

D_p – plankali g'altak diametri, m;

α_p – plankalarni val o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi, °;


n_p – plankalarni soni, dona;

γ_k – ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, °;

L_k – ko'mgichning uzunligi, m;


S – ko'mgichlar orasidagi tirqish kengligi, m;

Plankali g'altak ish jarayonida o'g'itlarni keng tasmasimon solish bilan birga urug'lik kartoshka



I-egat ochgich; II-plankali g'altak; III-ko'mgichlar; 1-ustun; 2-yumshatkich; 3-4-qanotlar; 5-o'g'ito'tkazgich; 6-shtanga; 7-8-o'g'it ko'mgich.

2-rasm. Kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'it solish ish organi



3-rasm. Plankali g'altak diametrini aniqlashga doir sxema

tushadigan egat tubida yumshoq qatlam xosil qilishi lozim. Shuning uchun o'g'it solgich-ko'mgich parametrlarini asoslashda ushbu jarayonni xisobga olish kerak.

Plankali g'altak diametri (3-rasm) uning oldida uchraydigan kesaklarni bosib o'tib ketishi shartidan kelib chiqib quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$r_p > \frac{r_k [1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] + h_p}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)} \quad (1)$$

bunda φ_1, φ_2 —mos ravishda kesaklarni g'altak plankalari ishchi sirti va tuproq bilan ishqalanish burchaklari; h_p — g'altak plankasini tuproqqa botish chuqurligi.


$d_k=5$ sm, $h_p=2$ sm, $\varphi_1=30^\circ$, va $\varphi_2=40^\circ$ qabul qilib (1) ifoda bo'yicha xisoblab plankali g'altak diametri kamida 16 sm bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

G'altak plankalari sonini uning ish jarayonida kamida bitta qatoridagi plankalar tuproq bilan to'liq o'zaro ta'sirda bo'lishi (3-rasm) shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz.

$$n \geq \frac{2\pi}{\arccos((r_p - h_p) / r_p)} \quad (2)$$

Bu ifoda tahlilidan ko'rinib turibdiki g'altakdagi plankalar soni asosan uning radiusi va tuproqqa botish chuqurligiga bog'liq. Ularning yuqorida keltirilgan va aniqlangan qiymatlarini (2) ifodaga qo'yib, plankalar soni kamida 9 dona bo'lishi kerakligini aniqlaymiz. Ya'ni, plankalar g'altak valiga 3 qator o'rnatilganligini xisobga olib bir qatoridagi plankalar soni 3 donadan kam bo'lmasligi lozim.

Plankali g'altakli o'g'it taqsimlagichda o'g'itning harakatini tadqiq etish. O'g'itning plankaga tushguncha, u bilan o'zaro ta'sirlashganda va zarbdan keyingi harakatlarini 4-rasmdagi sxemaga asosan tadqiq etildi.



4-rasm – Zarba ta'siridan so'ng granula traektoriyasini aniqlash

O'g'itning plankaga urilgandan keyingi xarakat traektoriyasini va uchish masofasini (3) va (4) ifodalar orqali aniqlandi.

$$X = t \cdot U_1 \cos \gamma + X_0 \quad (3)$$

$$y = \frac{gt^2}{2} + U_1 \sin \gamma \cdot t + y_0 \quad (4)$$

bunda t — vaqt; γ — granulaning qaytish vaqtidagi harakat yo'nalishi burchagi, $^\circ$

U_1 — zarbdan keyin o'g'itning hakikiy tezligi.


$$U_1 = \frac{-k \cdot V_1 \cdot \cos \alpha}{\cos \beta}$$

bunda k — o'g'itning tiklanish koeffitsienti; V_1 —o'g'itni plankaga urilgandan

keyingi tezligi, m/s; α – o‘g‘itni tushish burchagi, °; β – o‘g‘itning plankadan qaytish burchagi, °.

(3) va (4) ifodalarga tegishli o‘zgruvchilarni qiymatlarini qoo‘yib “Matcat” dasturi asosida xisoblab planka tasiridan keyingi traektoriyasini zarbadan keyin o‘g‘itni xarakat traektoriyasini grafik koo‘rinishida aniqlaymiz (5-rasm).

Ko‘p qatorli plankalardan o‘g‘itning qayta tiklanishining muhim omili granulaning dastlabki tezligidir. Granulalarning turli xil boshlang‘ich tezligi o‘g‘itni pushta kengligi bo‘ylab taqsimlashni osonlashtiradi. O‘g‘itning dastlabki tezligi 1,5-3,5 m/s; plankaning qiyalik burchagi 5-6° ga teng bo‘lganda agrotexnik talab bajriladi.



5-rasm. O‘g‘it granularining jo‘yak tubiga tushgandagi traektoriyasi

O‘g‘it ko‘mgichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini aniqlash. O‘g‘it ko‘mgichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi tuproq bo‘laklari o‘g‘it ko‘mgichning ishchi sirti bo‘ylab erkin sirpanishi, unga yopishmasligi hamda uning oldida uyulib qolmasligi shartlaridan kelib chiqib quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi:

$$\gamma_k = 45^\circ - \frac{\varphi_1}{2} \quad (5) \quad \text{yoki} \quad 2\gamma_k = 90^\circ - \varphi_1. \quad (6)$$

Tuproqning ichki ishqalanish burchagi $\varphi_1=30^\circ$ ga tengligidan ko‘mgichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi (6) ifodaga ko‘ra $\gamma_k=30^\circ$ ga teng bo‘ladi.

O‘g‘it ko‘mgichning qamrash kengligini egat ochgich tomonidan yoyilgan tuproqni solingan o‘g‘itni 3-5 cm qalinlikda qatlam xosil qilib ko‘mish shartdan quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$B_m \geq B_e + 2H \operatorname{ctg} \left\{ \arctg \left[\frac{\operatorname{ctg} \frac{1}{2} (\alpha_n + \varphi_1 + \varphi_2)}{\cos \gamma_k} \right] \right\}. \quad (7)$$

bunda B_e – egat ochgichning qanotlarini kengligi;

H – egat ochgich yurish chuqurligi;

α_n – egat ochgichning tuproqqa kirish burchagi;


γ_e – egat ochgich qanotining ochilish burchagi;

(7) shart bajarilganda egat tubiga tushgan o‘g‘it 3-5 cm qalinlikdagi tuproq bilan ko‘milishi ta'minlanadi.

$B_e=20$ cm, $H=15$ cm, $\alpha_e=25^\circ$, $\varphi_1=30^\circ$, $\varphi_2=40^\circ$ va $\gamma_k=70^\circ$ ga tengligidan (7) ifodaga bo‘yicha yoyilgan tuproqni to‘la qamrab olishi uchun ko‘mgichlarning qamrash kengligi 35 cm kichik bo‘lmasligi aniqlandi.

O‘g‘it ko‘mgichni orqa tomoni tirqish kengligini asoslash. O‘g‘it ustida 3-5 cm tuproq qatlami xosil qilishi shartidan aniqlaymiz.

Tuproq bo'laklari ko'ngich tasiridan o'g'it solingan zonaga etib borishi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim (6-rasm):



6-rasm. Ikki tomondagi ko'ngich orasidagi tirqishni aniqlash (a) va tuproq bo'lagini ko'ngich tasiridan keying harakati (b) sxemalari

$$l_t \geq 0,5 S, \quad (8)$$

bunda l_t —tuproq bo'laklarini ko'ngich tasiridan tekislagichlardan tushgandan keyingi ko'ndalang yo'nalishida bosib o'tadigan masofasi.

Bu l_t kattalikni aniqlash uchun tuproq bo'lagining ko'ngich ta'siri ostidagi va undan keyingi harakatini tadqiq etamiz va tirqishni kengligini aniqlaymiz. Ko'ngich (6-rasm) harakati davomida uning M_1 nuqta bilan uchrashgan tuproq bo'lagi A ko'ngich bilan birga unga o'tkazilgan normalga nisbatan φ_1 burchak ostida $V_a = (V \sin \gamma_m) / \cos \varphi$ tezlik bilan harakatlanib M_2 nuqtaga kelganda pastga tushadi va M_3 nuqtada harakatini to'xtatadi. Natijada, tuproq ko'ngichdan tushganidan so'ng tuproq yuzasida l_t masofani bosib o'tadi va o'g'itni ko'mib ketadi.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida o'g'it ko'ngichni orqa tomoni tirqishi kengligi quydagicha bo'lishi aniqlandi:

$$S \leq \frac{V^2 \sin^2 \gamma_k}{f_2 g \cos^2 \varphi_1} \cos(\gamma_k + \varphi_1). \quad (9)$$

Bu ifodadan ko'rinib turibdiki ko'ngichlar orasidagi tirqish kengligi harakat tezligiga, ularning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchaklariga hamda tuproqning fizik-mexanik xossalariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

$V=1,66$ m/s; $g=9,81$ m/s²; $f_2=0,7$; $\gamma_k=30^\circ$ va $\varphi_1=30^\circ$ ga tengligidan, (9) ifoda bo'yicha ko'ngich orlig'i ko'pi bilan 10 cm bo'lishi aniqlandi.

Ko'ngichlarning uzunligini 6-rasmdagi keltirilgan sxemaga binoan ko'ngichning uzunligi:

$$L_k = \frac{B_m - S}{2 \sin \gamma_k} \quad (10)$$

(9) ni hisobga olganda,

$$L_k \geq 0,5 \cdot \left[\frac{B_m}{\sin \gamma_k} - \frac{V^2 \sin \gamma_k \cos(\gamma_k + \varphi_1)}{f_2 g \cos^2 \varphi_1} \right]. \quad (11)$$

Bu ifodaga B_m , γ_k , V , f_2 , g va φ_1 larning yuqorida keltirilgan qiymatlarini qo'yib, ko'ngichni uzunligi kamida 26 cm bo'lishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish uslubilari va ularning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida o'tkazilgan nazariy tadqiqotlardan olingan natijalarni tajriba natijalari bilan taqqoslash hamda o'g'itni tuproq ostiga solish ish organi parametrlarining maqbul qiymatlarini topish maqsadida eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Plankali g'altak diametri (plankalar uzunligi), plankalar soni va plankalarni val o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagini o'g'it solish kengligi va notekisligiga ta'sirini o'rganildi. Ularning natijalari 7-rasmda keltirilgan.

O'tkazilgan tajribalar natijalaridan ko'rinib turibdiki plankali g'altak diametri oritishi bilan o'g'it solish kengligi ortishiga (7,a-rasm) va u bo'yicha solish notekisligi (7,b-rasm) kamaygan, Bunday o'zgarishga plankali g'altak diametri oritishi plankalar o'g'itlarni to'laroq qabul qilib, ularni uzoqroqqa va bir tekis tushishiga olib kelgan.


O'g'it solish kengligi plankani aylanish o'qiga nisbatan o'rnatish burchagi 5° dan 15° ortganda ortgan, bu burchak 15° dan 20° ga ortganda kamaygan (7,v-rasm). Bunday o'zgarishga plankani aylanish o'qiga nisbatan o'rnatish burchagi 15° ga bo'lganda o'g'itlar plankaga urilgandan so'ng uning qaytish burchagi katta bo'lib, u uzoqroq masofaga bormoqda, 15° katta bo'lganda qaytish burchagi kichiklashib gorizantal tezligi kam bo'lishi bilan izohlash mumkin. Solingan o'g'it kengligi bo'yicha notekisligi plankani aylanish o'qiga nisbatan o'rnatish burchagi ortishi bilan botiq parabola qonuniyati bilan o'zgargan (7,g-rasm), ya'ni 5° - 10° oralig'ida kamaygan, 10° - 20° oralig'ida tezliklarga ortgan.

Plankalar soni ortib borish bilan o'g'it solish kengligi va u o'yicha notekisligi ortib borgan. O'g'it solish kengligi plankalar soni 6-12 dona oralig'idan jadal ortgan, plankalar soni 12-15 dona oralig'ida diyarli O'zgarmadi (7,d-rasm). Solingan o'g'it kengligi bo'yicha notekisligi plankalar soni 6 donadan 15 donaga ortishi bilan ortib borgan (7,e-rasm). Bunday o'zgarishga plankalar soni ortishi o'g'itlar plankalarga urilish extimoli ortadi, natijada plankalarga o'g'itning uzoqroqqa tushishi bilan izohlash mumkin.

O'g'it tarqatuvchi plankali g'altakning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining birgalikdagi maqbul qiymatlari ko'p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib aniqlandi. Uning natijalariga asosan plankali g'altak talab darajasidagi ish sifatini, ya'ni o'g'it solish kengligi maksimal qiymatga ega bo'lishi, solingan o'g'it kengligi bo'yicha notekisligi minemal bo'lishi ta'minlashi uchun 4-6 km/s ish tezliklarda plankali g'altak diametri 15 cm, plankani aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi 10° , plankalar soni 9 dona bo'lishi lozim. Aniqlangan qiymatlarida solingan o'g'it kengligi va u bo'yicha notekisligi mos ravishda 16-18 cm va 8,0-9,5 % ni tashkil etadi.

Solingan o'g'it ko'mish, tuganak tushish uchun chuqurligi 3-4 cm bo'lgan uya xosil qilish talab etiladi, shunga asosan solingan o'g'itni ko'milish chuqurligi va tuganak uchun xosil qilingan uya chuqurligiga ham tortishga qarshiligini o'g'it ko'ngichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, uzunligi va uning

pastki qirrasni egat olgich qanotigacha bo'lgan tik masofalarga bog'liqligi o'rganildi.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 4 va 6 km/h bo'lganda
7-rasm. O'g'it solish kengligi (L_o) va notekisligi (H_y) ni plankali g'altak diametri (D_p), plankalarni val o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi (α_p) va plankalar soniga bog'liqligi

O'g'it ko'mgichning harakat o'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagini uning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishda, bu burchagini 5° interval bilan 25° dan 40° gacha o'zgartirildi.

o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagini 25° dan 35° gacha ortishi o'g'it ko'milish va tuganaklar uchun uya chuqurliklar ortgan, 35° dan 40° gacha ortishi esa bu ko'rsatkich kamayishlarga olib kelgan. O'g'itni ko'milish va tuganaklar uchun uyalar chuqurligini o'rtacha kvadratik chetlanishlari o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 25° dan 35° gacha ortgandan, bu burchak 35° dan 40° ortishi ko'rilayotgan ko'rsatkichlar ortgan.

Ish organining tortishga qarshiligi o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi ortishi bilan botiq parabola qonuniyati bilan o'zgarimoqda, ya'ni bu burchak 25° dan 30° ga ortgandan kamaygan bo'lsa, bu burchak 30° dan 40° ga o'zgarganda ortgan. Bunday o'zgarishiga sababi shuki, o'g'it ko'mgich harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi $27-32^\circ$ oralig'ida bo'lganda uning oldida tuproqning uyulishi va uning ishchi yuzasiga yopishib qolishi kuzatilmaydi.

O'tkazilgan tajribalar natijasiga asosan, kam energiya sarflagan holda talab darajasida ish ko'rsatkichlarini ta'minlashi uchun o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi $30-35^\circ$ bo'lishi lozim

O'g'it ko'mgichni uzunligini uning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganish bo'yicha tajribalar ham 4 va 6 km/s tezliklarda o'tkazildi. Bunda o'g'it ko'mgichni uzunligi 5 cm interval bilan 20 cm dan 35 cm gacha o'zgartirilib tajribalar o'tkazildi. Tajribalarda olingan natijalarshuni ko'rsatdiki, har ikkala harakat tezligida ham o'g'it ko'mgich uzunligining ortishi bilan o'g'it ko'milish chuqurligi va tortishga qarshiligi ortib bordi. Buni o'g'it ko'mgichning uzunligi ortishi bilan uning tuproq bilan ta'sirlashish yuzasi kattalashishi va buning natijasida tuproqni o'g'it ustiga ko'proq tashlashi bilan izohlash mumkin. Tuganaklar uchun ochilgan uyaning chuqurligi kamayishiga olib kelgan. Bu o'zgarishlarni ham yuqorida takidlangandek o'g'it ko'mgichlar tomonidan surilayotgan tuproq xajamini ortishi bilan izohlash mumkin.

O'g'it ko'mgich pastki qirrasini egat olgich qanotigacha bo'lgan tik masofani uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalarda bu masofani 2 cm interval bilan 22 cm dan 28 cm gacha o'zgartirildi. Olingan natijalari shuni ko'rsatdiki o'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa 22 sm dan 28 cm ga ortishi bilan o'g'itning ko'milish chuqurligi va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ortgan. Tuganaklar uchun uyalar chuqurligi o'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa 22 sm dan 28 cm ga ortishi bilan qabariq parabola qonuniyati bo'yicha o'zgaragan, ya'ni 22 sm dan 24 sm oralig'ida ortgangan, 24 cm dan 28 cm oralig'ida kamaygan.

Ish organing tortishga qarshiligi o'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa 22 cm dan 28 cm ga ortishi bilan ortgan. O'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa ortishi bilan unga ta'sir etayotgan tuproq xajmini ortishi bilan izohlash mumkin. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, o'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofani ko'pi bilan 26 cm bo'lishi agrotexnik talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlash imkonini beradi.

Eksperimentlarni matematik rejalashtirish usuli bilan o'g'it ko'mgich parametrlarini maqbullashtirish. O'g'it ko'mgichning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan maqbul qiymatlarini ko'p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib aniqlandi. Baholash mezonlariga omillarning ta'sirini ikkinchi darajali polinom to'liq yoritib beradi deb qaralib, eksperimentlar Xartli-4 rejasi bo'yicha o'tkazildi.

Tadqiqotlarni o'tkazish uchun o'g'it ko'mgichning harakat o'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi γ_k , uzunligi L_k , og'it komgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bolgan tik masofa H_p va agregat tezligi V ni o'g'itni ko'milish chuqurligi (h_o), tuganaklar uchun uya chuqurligi (h_e) hamda o'g'it ko'mgich tortishga qarshiligi (R) ga ta'siri o'rganildi va ularni adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

– o'g'itni ko'milish chuqurligi bo'yicha, cm;

$$h_o = +2,941 + 0,049X_1 + 1,165X_2 + 1,057X_3 + 0,998X_4 - 0,410X_1X_1 - 0,127X_1X_2 + 0,210X_1X_3 - 0,418X_2X_2 - 1,03X_2X_3 + 0,065X_2X_4 + 0,353X_3X_3 - 0,296X_3X_4 + 0,067X_4X_4; \quad (13)$$

– tuganaklar uchun uya chuqurligi bo'yicha, cm;

$$h_e = +3,729 + 0,326X_1 - 1,098X_2 - 0,302X_3 - 0,900X_4 - 0,299X_1X_1 - 0,108X_1X_2 - 0,030X_1X_3 - 0,041X_1X_4 + 0,864X_2X_2 + 1,146X_2X_3 + 0,477X_2X_4 - 0,252X_3X_3 + 0,909X_3X_4 - 0,534X_4X_4; \quad (14)$$

– ish organining tortishga qarshiligi bo'yicha, N;

$$R = +473,146 + 10,267X_1 + 80,333X_2 + 108,667X_3 + 84,833X_4 + 22,996X_1X_1 + 0,000X_1X_2 + 5,750X_1X_3 + 27,996X_2X_2 - 23,167X_2X_3 - 11,583X_2X_4 + 34,663X_3X_3 - 6,083X_3X_4 + 55,496X_4X_4. \quad (15)$$

Agregat 4-6 km/h ish tezliklarda o'g'itni ko'milish chuqurligi 3-5 cm va tuganak uchun uya chuqurligi 3-4 cm oraliq'ida bo'lishi hamda ish organing tortishga qarshiligi minimal qiymatga ega bo'lishini ta'minlash uchun o'g'it ko'mgichning harakat o'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi $27^{\circ}25' - 31^{\circ}02'$ oraliq'ida, uzunligi 21,94-26,21 cm, o'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa 25,36-25,55 cm oraliq'ida bo'lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida o'g'it ko'milish chuqurligi 3,04-3,49 cm, tuganaklar uchun uya chuqurligi 3,53-3,9 cm hamda tortishga qarshiligi 443,76-487,16 N ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“O'g'itlagich bilan jihozlangan kartoshka ekish mashinasining ho'jalik sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it solish mashinasining qisqacha texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

O'g'itlagich bilan jihozlangan kartoshka ekish mashinasining ho'jalik sinovlari natijalari va o'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatadiki, mavjud KS-2 nisbatan Kartoshka ekish bilan bir yo'la o'g'it solish mashinasi qo'llanilganda ish unumi 1,3-1,6 marta oshdi, mehnat sarfi 35,70 foizga va 1 gektar erga sarflanadigan ekspluatatsion harajatlar 29,16 foizga kamayadi.

XULOSA

“Kartoshka ekishda biryo'la o'g'it soladigan ish organining takomillashtirish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hozirgi kunda kartoshka ekish bilan birga o'g'it solish uchun

qo'llaniladigan mavjud kartoshka ekish mashinalari keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, oddiy o'g'itlash ish organii bilan amalga oshiriladi. Bu ish organlar kartoshka ildizi rivojlanadigan maydonga keng tasmaimon o'g'it solishni ta'minlamaydi.

2. Mavjud o'g'itlash ish organlarini konstruksiyalarining holati va ularning texnologik ish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar va rivojlanish istiqbollari tahlili, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan, ekish bilan birga bir yo'la o'g'it soladigan kartoshka ekish mashinasini yaratish mumkin ekanligini ko'rsatdi.

3. Kartoshka ekishda bir yo'la o'g'it soladigan texnologiyalar va texnika vositalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar hamda patentlarni tahliliy tadqiq qilish kartoshka ekish davrida tuproqning muayan qatlamiga ma'lum chuqurlik va kenglikda o'g'it solish eng samarali va ekologik xavfsiz usul hisoblanadi, ammo bu usul kartoshka ekishda juda kam o'rganilgan.

4. Mineral o'g'itlarni kartoshka tuganaklari ostiga solish uchun taklif etilayotgan ishchi qism soshnik ustun, o'g'it o'tkazgich, o'g'it ko'mgich, va tuproq qatlamini yumshatadigan uchlikdan iborat bo'lib, g'altakni aylanish o'qiga nisbatan turli yo'nalishda plankalar o'rnatilgan va erkin aylanadigan qilib tayyorlangan.

5 Nazariy tadqiqotlar asosida plankali g'altakli o'g'itlagich va o'g'it ko'mgichning asosiy parametrlarini aniqlovchi analitik ifodalar ishlab chikildi. Natijada, kartoshka ekish mashinasi tezligi 4-6 km/soat bo'lganda plankali g'altakning diametri $D_p=16$ cm plankalar soni har bir qatorda 3 dona bo'lishi, o'g'itning tushish tezligi 1,5-3,5 m/s bo'lishi, plankaning qiyalik burchagi $5-6^0$ bo'lishi, xamda o'g'it ko'mgichning o'rnatish burchagi $\gamma_k=30^0$, ikki ko'mgich orasidagi tirqish oralig'i $S=10$, cm balandligi $H_m=14$ cm qamrash kengligi $B_m=35$ sm dan kichik bo'lmasligi; ko'mgichning uzunligi $L_k=26$ smga teng bo'lishi nazariy jixatdan asoslab berildi.

6. Tajribalarni matematik rejalashtirish usuli bilan o'g'it solib ko'mgichni parametrlarini maqbullashtirish natijalariga asosan o'g'itlarni solinish kengligi va u bo'yicha notekisligi agrotexnik talab darajasida, ya'ni solingan o'g'it tasmasi kengligi 16-18 cm va notekisligi 10 % dan ortmasligini ta'minlash uchun plankali g'altak dimetri 15 cm, plankani aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi 15^0 , plankalar soni 9 dona bo'lishi aniqlandi.

7. O'tkazilgan tajribalar orqali o'g'it solib ko'mgich bilan jixozlangan kartoshka ekish mashinasining 4-6 km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun o'g'it ko'mgichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi $27^025'-31^002'$ oralig'ida, uzunligi 21,94-26,21 cm, O'g'it ko'mgichning pastki qirrasidan egat ochgich qanotigacha bo'lgan tik masofa 25,36-25,55 cm oralig'ida bo'lishi aniqlandi.

8. O'tkazilgan xo'jalik va taqqoslov sinovlariga asosan mavjud KS-2 mashinasiga nisbatan takomillashtirilgan kartoshka ekish mashinasining ish unumi 1,3 marta oshdi, mehnat sarfi 35,7 foizga va 1 gektar yerga sarflanadigan ekspluatasion harajatlar 1,4 marta kamayadi. Bunda kartoshka ekkichning yillik iqtisodiy samarasi 15606364,77 so'm foyda olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Т.15.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ГУЛОМОВ ШУКУРЖОН ИЛХОМЖОН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
РАБОЧЕГО ОРГАНА ДЛЯ ВНЕСЕНИЯ УДОБРЕНИЙ ПРИ ПОСАДКЕ
КАРТОФЕЛЯ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/T4934.

Диссертация доктора философии выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.namdtu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Комилов Нематилла Мухаммаджонович доктор философии (PhD) по техническим наукам, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	Норчаев Даврон Рустамович доктор технических наук, профессор Рахмонов Хусан Тожиевич доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
Ведущая организация:	Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Защита диссертации состоится на заседании научного совета PhD.03/2025.27.12.T.15.06 при Наманганском государственном техническом университете в 202__ году «»__ в __ часов. (Адрес: 160103 Наманган, улица Ислама Каримова, дом 12.Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: nammqi_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: 160103 Наманган, улица Ислама Каримова, дом 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: namdtu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан в 202__ году «» _____ числа.
(Протокол рассылки № ____ от «» _____ 202__ года).

Н.Г. Байбобоев
Председатель научного
совета по присуждению
ученой степени, д.т.н, профессор
В.М. Турдалиев
Ученый секретарь научного
совета по присуждению
ученой степени, д.т.н, профессор
А.Х. Умурзаков
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одно из ведущих мест занимает повышение эффективности внесения и экономия минеральных удобрений при подкормке корнеплодных сельскохозяйственных культур, а также внедрение современных технологий и технических средств для внесения удобрений в определенном количестве в определенный слой почвы, где развиваются корневая система. Учитывая, что “в мире на площади около 900 млн. гектаров выращивается различная сельскохозяйственная продукция, из них картофель выращивается на площади 18 млн. гектаров - картофель,” то одной из актуальных задач является внедрение в производство машин, обеспечивающих высокую производительность и качественные показатели труда при выращивании картофеля, а также внесение ресурсосберегающих минеральных удобрений на основе установленных требований. В связи с этим важное значение имеет использование высокоэффективных машин для внесения минеральных удобрений под клубни картофеля, то есть в слой почвы, где развивается корневая система.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ ресурсосберегающих технологий внесения минеральных удобрений на заданную глубину в слой почвы, где развивается корневая система корнеплодов сельскохозяйственных культур, и технических средств для их реализации. В этом направлении особое внимание уделяется проведению научных исследований по разработке конструктивной схемы рабочих органов для внесения удобрений под клубни картофеля при посадке картофеля и научному обоснованию технологических процессов, обеспечению ресурсосбережения в агротехнических требованиях по внесению удобрений в процессе посадки под клубни картофеля и образованию гребней после посадки.

